

ABDULLA AVLONIY IJTIMOIIY-PEDAGOGIK FAOLIYATINING NAZARIY ASOSLARI

Ibragimova Ra'noxon Xadyatillayevna
Osiyo Xalqaro universiteti 1-kurs magistranti
ibragimovaranosa34@gmail.com

Annotatsiya: *Abdulla Avloniy (1878–1934) – o‘zbek ma’rifatparvari, pedagog va ijtimoiy arbob bo‘lib, uning faoliyati milliy tarbiya tizimini modernizatsiyalash, jamiyatni ma’rifat asosida qayta qurish g‘oyalariga asoslangan. Ushbu maqolada Avloniyning ijtimoiy-pedagogik qarashlarining nazariy asoslari – inson tarbiyasida axloqiy idealizm, milliy madaniyatni tiklash, ta’limni jamiyat ehtiyojlari bilan bog‘lanishi kabi tamoyillar tahlil qilinadi. Tadqiqotda 1910–1930-yillardagi Avloniy asarlari, xalqaro va mahalliy manbalar (jumladan, “Turkiy Guliston yoki axloq”, “Adabiyot” kitoblari), shuningdek, zamonaviy pedagogika tadqiqotlari statistikasi qo‘llanildi. Natijalar shuni ko‘rsatdiki, Avloniyning “yangi inson” konsepsiyasi zamonaviy kompetensiyaviy yondashuvlar bilan uyg‘unlikda: u shaxsning ijtimoiy mas’uliyati, ijodiy mustaqilligi va ma’naviy kamolotini ta’kidlaydi. Xulosa qilib, Avloniy merosini zamonaviy ta’lim strategiyalariga integratsiyalash orqali milliy-ma’naviy tarbiyani mustahkamlash mumkinligi ta’kidlangan.*

Kalit so‘zlar: *Abdulla Avloniy, ijtimoiy pedagogika, milliy tarbiya, ma’rifatparvarlik, axloqiy idealizm, kompetensiyaviy yondashuv, milliy uyg‘onish, pedagogik strategiya.*

Аннотация: *Абдулла Авлони (1878-1934) – узбекский просветитель, педагог и общественный деятель, творчество которого основано на идеях модернизации национальной системы образования и реконструкции общества на основе просвещения. В данной статье анализируются теоретические основы социально-педагогических взглядов Авлони - такие принципы, как нравственный идеализм в воспитании человека, восстановление национальной культуры, связь образования с потребностями общества. В исследовании использованы труды Авлони 1910-1930 годов, зарубежные и отечественные источники (в том числе книги “Турецкий Гулистан или Этика”, “Адабиет”), а также статистика современных педагогических исследований. Результаты показали, что концепция “нового человека” Авлони гармонизирует с современными компетентностными подходами: она подчеркивает социальную ответственность, творческую независимость и духовную зрелость личности. В заключение было подчеркнуто, что усилить национально-духовное воспитание можно путем интеграции наследия Авлони в современные образовательные стратегии.*

Ключевые слова: *Абдулла Авлони, социальная педагогика, национальное образование, просвещение, моральный идеализм, компетентностный подход, национальное пробуждение, педагогическая стратегия.*

Abstract: *Abdulla Avloniy (1878–1934) is an Uzbek enlightener, educator and public figure, whose work is based on the ideas of modernizing the national education system and*

rebuilding society on the basis of enlightenment. This article analyzes the theoretical foundations of Avloniy’s socio-pedagogical views - such principles as moral idealism in human education, the restoration of national culture, and the connection of education with the needs of society. The study used Avloniy’s works of the 1910s–1930s, international and local sources (including the books “Turkish Gulistan or Ethics”, “Literature”), as well as statistics from modern pedagogical research. The results showed that Avloniy’s concept of the “new person” is in harmony with modern competency-based approaches: it emphasizes the social responsibility, creative independence and spiritual maturity of the individual. In conclusion, it is emphasized that national-spiritual education can be strengthened by integrating Avloni’s legacy into modern educational strategies.

Keywords: *Abdulla Avloni, social pedagogy, national education, enlightenment, moral idealism, competency-based approach, national awakening, pedagogical strategy.*

KIRISH

Abdulla Avloniy – XX asr boshlarida O‘rta Osiyoda milliy-ma’rifatparvar harakatning yetakchi vakili bo‘lib, uning ijtimoiy-pedagogik faoliyati jamiyatni bilim va ma’naviyat asosida qayta qurishga qaratilgan. Uning nazariyalari nafaqat o‘zbek, balki Markaziy Osiyo xalqlarining pedagogik tafakkuriga chuqur ta’sir ko‘rsatdi⁶. Zamonaviy sharoitda globalizatsiya va madaniy identitetning yo‘qolish xavfi Avloniy g‘oyalarining dolzarbligini oshiradi. Uning asarlarida ta’limning ijtimoiy funksiyasi – jamiyatning axloqiy tuzilishini saqlash, milliy qadriyatlarni targ‘ib qilish – muhim o‘rin tutadi

Abdulla Avloniy o‘z davridako‘zda turganidek: “Agar pedagogika insonni har tomonlama tarbiyalashni xohlar ekan, unda insonni har tomonlama o‘rganishi zarur”dir, darhaqiqat ta’lim jarayonida o‘quvchi yoshlar tarbiyasi va ularning bilim salohiyatlarini shakllantirishga o‘qituvchilar mas’ul bo‘lar ekan, avvalo o‘quvchi va murabbiy o‘rtasida muloqot ko‘nikmasi shakllanishi, o‘quvchilar o‘zlarida tug‘ilgan savollarni yoki o‘z fikrlarini erkin bayon etishi zarur. Bunda o‘quvchilarni darsga jalb etishda, albatta, o‘qituvchidan katta pedagogik ko‘nikma talab etiladi. Abdulla Avloniyningta’lim sohasidagi pedagogik harakatlarini o‘rganar ekanmiz, uning maktabida qizlar ham bolalar bilan yonma-yon o‘tirib tahsil olganlarini ham ko‘rishimiz mumkin. “Turkiston viloyatining gazetisi” 1910 yil sonlaridan birida o‘sha yili 23 mayda Avloniy maktabida bir necha ulamolar, shogirdlarning otalari va ko‘plab tomoshabinlar huzurida bo‘lib o‘tgan imtihon haqida to‘xtalib, bir yosh shogird -qizning o‘z aqli va tarbiyasi bilan hammani hayratga solganini xabar qilgan edi. Biz Abdulla Avloniyning nafaqat pedagogik balki uni adabiyotshunos olim sifatida ham taniymiz. Uning dastlabki poetik asarlari “Adabiyot yoxud milliy she’rlar” “Maktab gulistoni” (1916), “Mardikorlar ashulasi” (1917) kitoblarida va “Sabzavor” tazkirasi (1914) hamda vaqtli matbuot sahifalarida chop etilgan asarlaridir. Ularda ilm-ma’rifat targ‘ib qilingan, jaholat va nodonlik, eski tuzumning ijtimoiy-axloqiy asoslari qoralangan, ozod va baxtiyor zamon haqida fikr yuritilgan. Shu jihatdan Avloniyning bu davrdagi she’rlari Hamza, Anbar otin poeziyasiga ohangdoshdir. Avloniy

barmoq vaznini adabiyotda keng qo‘llagan. Milliy kuylarga moslab she‘rlar yozgan va poeziyaning imkoniyatlarini boyitgan. “Insondagi qobiliyatni kamolga yetkazmoq tarbiya vositasida bo‘ladi. Agar bola yaxshi tarbiya topib, buzuq xulqdan saqlanib, go‘zal xalqlariga odatlanib katta bo‘lsa, baxtiyor bir inson bo‘lib chiqadi. Agar tarbiyasiz, axloqi buzilib o‘ssa, nasihatni qulog‘iga olmaydigan, har xil buzuq ishlarni qiladigan nodon, johil bir rasvoi odam bo‘lib chiqadi”-deb ta’kidlaydi. Shunday ekan, bugungi kunda pedagogik nazariya va amaliyot muammolarini tadqiq qilish va yechimini topishda pedagogik diagnostika hamda korreksiya muhim ahamiyat kasb etadi. Fikrimcha, o‘qituvchi nafaqat bilim beradi dars jarayonida va shu bilan birga o‘z harakatlari, mimika va so‘zlashishi, muloyimligi bilan tarbiya beradi. Mana shunday xislatlarga ega bo‘lgan o‘qituvchiga o‘z-o‘zidan o‘quvchi yoshlar ham ertgashadi, uni tinglash bilan bir qatorda o‘z fikrini ham seskanmay bayon eta oladi. Ta’lim - maxsus tayyorlangan kishilar rahbarligida o‘tkaziladigan o‘quvchilarni bilim, ko‘nikma va malakalar bilan qurollantiradigan bilim qobiliyatlarini o‘stiradigan, ularning dunyoqarashini tarkib toptiradigan jarayon ekanligi bizga ma’lum. Ushbu jarayonni ser mazmun qilishda o‘qituvchi tomonidan amalga oshiriladigan pedagogik texnologiyalar va interaktiv metodlar talabalar, o‘qituvchilarda ta’lim jarayoniga nisbatan faollikni oshiradi desak xato bo‘lmaydi. Xususan dars jarayonida nafaqat maruza yoki nutqiy fikrlar bilan ilmiy yondashish kerak va shu bilan birga interfaol usullar asosida ta’lim jarayonini olib borish darsning qizg‘in olib borilishiga sababchi bo‘ladi. Jumladan ,Abdulla Avloniy “Ikkinchi Muallim” darsligida ifodali hamda yoddan o‘qish uchun maxsus she‘rlar yaratdi. Shoir bunday she‘rlarning tuzilishiga, musiqiyligiga, qofiyalarning, turoqlarning muntazamligiga alohida e’tibor berdi. Odatda, bunday she‘rlarga muallif bilan bir qatorda o‘quvchining ham histuyg‘ulari singib ketadi. Demak, ifodali o‘qishga qaratilgan she‘rlar jarangdor, o‘ynoqi, o‘quvchining his-tuyg‘ulariga she‘riyatni-go‘zallikni, badiiy so‘zni his qilishga o‘rgatish vazifasini qo‘yadi. Abdulla Avloniy o‘quvchilarni estetik tarbiyalashda, ularning og‘zaki nutqini o‘stirishda maktabning pastki sinflaridayoq ifodali o‘qish metodiga alohida e’tibor beradi. Shuning uchun ham muallifning ushbu “Birinchi Muallim” va “Ikkinchi muallim” darsliklari usuli jadid maktablarida ancha keng qo‘llangan va bir necha bor qayta nashr qilingan. Bu orqali u nafaqat nutq madaniyatining to‘g‘ri rivojlanishga erishgan, balki bunday metod orqali o‘quvchida fikrlash, kuzatish, mimikaviy harakatlarning yuzaga kelishi, dadil darsda o‘zini tushishga hamda she‘riy bu kabi prozalarning yodlanishi o‘z navbatida o‘quvchida fikrlashning, yaratuvchanlik qobiliyatining shakllanishiga zamin yaratadi desak mubolag‘a bo‘lmaydi. Ta’lim sharoitda, pedagogik yo‘nalishda, dars jarayonini olib borishda quyidagi metodlardan foydalanish juda samarali deb o‘ylayman:

1. Pedagogik kuzatish metodi.
2. Suhbat metodi.
3. Anketa metodi.
4. Intervyu metodi.

Aynan mana shu metodlar Abdulla Avloniy qarashlariga hamohang desam xato bo‘lmaydi. Abdulla Avloniyning majmua-darsliklari suhbat usuli bilan bolalarning og‘zaki

nutqini o‘stirishda, badiiy so‘zlashuvga o‘rgatishda katta ahamiyat kasb etadi. Avloniyning “Adabiyot yoxud milliy she‘rlar” va “Maktab gulistoni” majmualarida ifodali o‘qishning qator shakllari – deklamatsiya (individual o‘qish), xor bo‘lib o‘qish, rollarga bo‘lib o‘qish kabi turlariga oid chiroyli matnlar berilgan. Shuni alohida ta’kidlash kerakki, “Adabiyot” majmuasidagi ba’zi she‘rlar (“Noma kimniki”, “Bizlarda nimalar ko‘p”) ifodali o‘qishning elementar shakllarini o‘quvchilarga o‘rgatish uchun xizmat qiladi. Bu she‘rlarda achchiq kinoya, nafrat ohanglari o‘quvchilarning diqqat markazida turadi. Bu kabi jamoaviy o‘qish o‘z navbatida o‘quvchilar o‘rtasida o‘zaro yaqinlik, ahillik, jamoaviylik kabi tushunchalarning shakllanishiga hamda bir-biriga yaqin mutloqning yuzaga kelishini olib keladi. Didaktik va pedagogik qarashlarga ega bo‘lgan Abdulla Avloniy o‘z darsliklarida o‘qishning elementar shakllari bilangina cheklanib qolmadi, ayni zamonda, o‘sha davrda ilm-ma’rifat tarqatish, xalqni ilm-fanni egallashga chaqirish yo‘lida jiddiy ish olib bordi. 1910-1911- yillarda Riga shahridagi “Grammofon” jamiyati vakillari O‘rta Osiyo shaharlariga kelib, o‘zbek, qozoq, tojik, qirg‘iz xalqlari orasidagi mashhur hofizlarning mumtoz maqomlari va qo‘shiqlarini plastikaga yozib oladilar. Shu munosabat bilan atoqli san’atkor Mulla To‘ychi Toshmuhamedov (1868-1943) ning ijro etgan shashmaqomi ham plastinkalarga yoziladi. O‘z zamonasining yirik ma’rifatparvar shoiri, pedagogi bo‘lgan A.Avloniy xalqni ilm-ma’rifatga targ‘ib qilish maqsadida o‘qitishda o‘sha davr texnika vositalaridan ham foydalandi. Abdulla Avloniy o‘zbek bolalarini maktabga jalb etish, xalq orasida ma’rifat tarqatish, ifodali o‘qishning dastlabki namunalarini yaratish maqsadida birinchi bo‘lib texnika vositalaridan foydalanadi. O‘qituvchi Avloniy “Maktabga targ‘ib” she‘rini o‘quvchilarga xor bo‘lib o‘qishga o‘rgatganidan so‘ng 1911-yilda bolalar xorini grammplastinkaga yozdirdi. Abdulla Avldoniy ta’lim va tarbiya birligiga alohida ahamiyat beradi. Inson aqliy faoliyatinnig ifodasi bo‘lmish fikr tarbiyasi orqaligina katta sharaftga, barkamollikka erishadi, bu o‘rinda o‘qituvchinnig fikrlash doirasining kengligi, bilim saviyasinnig har jihatdan yuksakligi o‘quvchilari tarbiyasida hal qiluvchi ahamiyatga ega. Fikrlash qobiliyatini rivojlantirish aql bilan ish tutishga olib keladi: o‘quvchilarni yaxshi xulqlar bilan yomon xulqlarni farqlashga, komil inson uchun zarur bo‘lgan yaxshi xulqlarni egallashga, insonni zalolatga yetaklovchi yomon xulqlardan uzoq bo‘lishga o‘rgatadi. Abdulla Avloniy bolalar uchun ham bir qancha she‘r va masallar yozgan. Shoir bu asarlarida maktab yoshidagi bolalarning fikr doirasini kengaytirish, ularda maktab va kitobga, mehnatga, tabiatga, Vatanga muhabbat uyg‘otishni maqsad qilib qo‘ygan. Uning ko‘pgina she‘rlari zahirida Vatanni sevish g‘oyasi yotadi. Shoir bu she‘rlarida Vatanni sodda va samimiy misralarda tasvirlaganki, faqat o‘sha o‘ninchi yillarning o‘rtalaridagina emas, balki bugungi maktab yoshidagi bolalar ham ulardan katta estetik zavq olishlari mumkin. Darhaqiqat, shoir Vatan ta’rifini boshlab, “Tog‘laridan konlar chiqar, Yerlaridan donlar chiqar Havosi o‘ta yoqumlik, Cho‘llari bor toshlik, qumlik, Toshkand emas, toshqand erur, Kesaklari gulqand erur”, deya bolalarda ona diyorga katta mehr uyg‘otishga erishadi.

XULOSA

Xulosa qilib shuni aytishim mumkinki, Abdulla Avloniyning bu kabi qarashlari va dars jarayoniga olib kirgan usullari o‘quvchida kommunikativ qobiliyatning o‘rishiga, o‘quvchilar orasida hissiy aloqa o‘rnatilishiga, muammoli vaziyatlar yechimiga, guruhda ishlashni, o‘zgalarning fikrini tinglay olishni va o‘z fikrini mustaqil bayon etishni o‘rgatibgina qolmasdan, unda o‘ziga ishonch, bilimiga tayana olish, qiziqishlarining kuchayishiga, keng fikrlashga olib keladi. O‘quvchilarni ma’naviy barkamol, aqliy salohiyati yuqori, mustaqil va erkin fikrlovchi, ijodkor bo‘lib shakllanishida pedagogik innovatsiyalarni qo‘llash, integrativ jarayonga asoslanish, interfaol metodlardan foydalanish kamlik qiladi. O‘quvchi shaxsining ichki olamini hisobga olish kerak bo‘ladi. Ya’ni uning shaxsiy fikri bilan hisoblashish, undagi qobiliyatlarni payqash, uning so‘z boyligini oshib borishiga ijobiy ta’sir ko‘rsata olish zarur deb o‘ylayman.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Mirziyayev Sh.M. Milliy taraqqiyot yo‘limizni qat’iyat bilan davom ettirib, yangi bosqichga ko‘taramiz.//Toshkent - 2017, "O‘zbekiston", 593 b.
2. A. Boboxonov, M. Maxsumov, “A. Avloniy pedagogik faoliyati” 1999 yil. 31-36-bet.
3. O.Suvonov, S.Astanova. “Pedagogik mahorat”. -Guliston, 2010.
4. R.Mavlonova, N.Raxmonqulova, N.Voxidova, K.Matnazarova. “Pedagogika” - Toshkent, 2013
5. Xodjayev B.X. Umumiy pedagogika nazariyasi va amaliyoti. Darslik – T: SANOSTANDART, 2017.
6. Ro‘ziyeva D.I., Tolipov O‘.Q. Pedagogik texnologiyalar va pedagogik mahorat. – T.: INNOVATSIYA-ZIYO, 2019.
7. Xodjayev B.X., Choriyev A., Saliyeva Z.T. Pedagogik tadqiqotlar metodologiyasi. Darslik. – T.: IQTISODIYOT DUNYOSI, 2018.
8. Mutalipova M.J., Xodjayev B.X. Qiyosiy pedagogika. Darslik. – T.: TDPU, 2015.